



EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK

Berdiboyev S

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6569729>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 15- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Ekologiya, tabiiy muhit, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy hudud, zarar yetkazish, ov mavsumi, brakoner, veterenariya, zararli kimyoviy moddalar, zararkunandalar, veteranariya-sanitariya qoidalari, tabiiy hudud rejimi, jinoiy javobgarlik

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarga yuridik tahlil qilingan

Insoniyatning rivojlanishi bilan bir qatorda bir necha global muammolar ham paydo bo'lmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi shular jumlasidan bo'lib, bugungi kunda umumbashariy muammo deb e'tirof qilinmoqda.[4]

“Ekologiya” grek tilidagi “oikos” va “logos” atamalarining birgalikdagi ifodasidan olingan bo'lib, yashash muhitini ta'limoti degan ma'noni anglatadi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ hujjatlariga asoslanadi. «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona

foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.»[1]

O'zbekiston Respublikasi amaldagi Jinoyat Kodeksida Ekologiya sohasiga oid jinoyatlarning 14 tarkibdagi turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-modda), atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (JK 194-modda), atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko'rmaslik (JK 195-modda), atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (JK 196-modda), yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish



(JK 197-modda), sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmaslik (JK 1971- modda), ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklari shikastlantirish yohud nobud qilish (JK 198-modda), o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (JK 199-modda), veteranariya, veteranariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish (JK 200-modda), zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish (JK 201-modda), hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-modda), hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish (JK 2021-modda), suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (JK 203-modda), muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish (JK 204-modda).

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.[2]

Ushbu jinoyatlar obyektining xususiyatidan kelib chiqqan holda ekologiya sohasidagi hamma jinoyatlar ikki guruhga bo'linadi: 1. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar. 2.Tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar.[6]

Ekologiya sohasiga oid jinoyatlarning umumiy obyekti - tabiatdan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish yo'li bilan xo'jalik va boshqa faoliyat sohasidagi ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Qo'shimcha obyekt , inson hayoti va sog'ligi hisoblanadi.

JK 197 va 1971-moddasining bevosita obyekti – yer va yer osti boyliklaridan

foydalanish va uni muhofaza qilishning belgilangan tartibi hioblanadi.

Yer deganda, yer uchastkalarining har qanday turlari, ya'ni yer ustining qismi, ostki qismi tushuniladi. Yer osti boyliklari O'zbekiston Respublikasining mulki bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarur ular davlat muhofazasidadir.[3]

O'rmon, ekinzor va boshqa dov-daraxtlarni atrof tabiiy muhitning tabiiy qismi va boyligi sifatida ulardan tegishli darajada foydalanish yo'li bilan saqlashni ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar JK 198-moddasining obyekti hisoblanadi.

Ekinzor deganda dov-daraxtlarni sun'iy ravishda o'tkazish tushuniladi.Boshqa dov-daraxtlar deganda, o'rmon fondi yerlarida, o'rmon fondiga kirmaydigan o'rmonlarda, transport yo'llarida, aholi yashaydigan punktlarda;suv atrofi yerlarida yoki boshqa toifadagi yerlarda o'sadigan daraxtlar, butalar va lianalar tushuniladi.[6]

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning obyektiv tomoni belgilari ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadigan moddalarning dispozitsiyalarida keltirilib o'tilgan. Masalan, JK 193-moddasining obyektiv tomoni, sanoat, energetika transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm-fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyihalash, qurish, joylashtirish va ishga tushirib foydalanish normalarini buzish va bu qilmish odamlar o'limiga sabab bo'lishi va boshqa og'ir oqibatlariga oib kelishi bilan ifodalandi, yoki JK 194-moddasining obyektiv tomoni , zararli ekologik oqibatlarni keltirib chiqargan avariylar yoki atrof-muhitni boshqacha tarzda ifloslanganligi haqidagi ma'lumotlarning qasddan yashirilishi yoki buzib talqin qilinishidan iborat.



Ekologiyasi ifloslangan hududlarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralari ko'rishdan bo'yin tovlash yohud bunday ishlarni yetarli bajarmaslik odamlarning ommaviy kasallanishi yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lishi JKning 195-moddasi obyektiv tomoni hisoblanadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning dispozitsiyalari, blanket hisoblanadi. Blanket normada jinoyat tarkibi belgilari boshqa huquq sohasining normativ-huquqiy hujjatida o'z ifodasini topadi.[5]

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarda jinoyat tarkibini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasining 06.01.2004-yildagi «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar

to'g'risida»gi, 12.06.1993-yildagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, 03.02.2003-yildagi «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunlar va boshqalar.

Ekologiyaga oid Jinoyatlarning subyekti, 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs yoki mansabdor shaxs bo'lishi mumkin.

Subyektiv tomondan jinoyat qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Aybga nisbatan qasd bo'ladigan bo'lsa, oqibat ehtiyotsizlik bilan ifodalanadi.

Ekologiyaga oid barcha jinoyatlar obyektiga nisbatan ko'p miqdorda zarar yetkazilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: "O'zbekiston", 2021y.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2021 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. –
3. O'zbekiston Respublikasi 13.12.2002-yildagi 444-II-sonli "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonuni
4. Гаев Д.Я., Самарина В.С. Наши следы в природе. –М., 1991. –Б.3.
5. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Ma'sul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 18b
6. Qabulov R., Pulatov YU. S. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. –
7. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 3-Maxsus qism/M.Rustambayev. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. –744b
8. <https://science.karsu.uz/science/article/view/412>
9. Утемуратова С.Ш. Ўзбекистонда экология соҳасидаги жиноятлар учун жавобгарликнинг жиноят қонунига киритилиш тарихи